




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTI
USLUBCHISI**



“Kasbiy ta’lim tashkiloti uslubchisi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Kasbiy ta'lim tashkiloti uslubchisi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0129



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu Kasbiy standart Kasbiy ta'lim tashkiloti uslubchilari kasblari bo'yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi

Mazkur kasbiy standart mashg'ulotlarning milliy klassifikatoriga kiritilgan 2351 Ta'lim uslubiyoti bo'yicha professional-mutaxassislariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

andragogika – kattalarni o'qitish usullari va texnologiyalarini o'rganish va asoslash bilan shug'ullanadigan fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

davlat ta'lim tashkiloti – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan tashkilotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kompleks davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

pedagogik faoliyat – ta'lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – o‘quvchilar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan faoliyat;

ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta‘lim dasturi – tegishli kasblar, ta‘lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari (talablari) va kasbiy standartlarga muvofiq kompetensiya va o‘quv natijalari, ta‘lim mazmuni, hajmi va baholash talablarini belgilovchi o‘quv-me‘yoriy hujjat;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta‘lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

o‘quv dasturi – kasbiy ta‘limning o‘quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazmuni, uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan hujjat;

o‘quv fani – kasbiy ta‘lim tashkilotlarida o‘rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi;

o‘quv jarayoni grafigi – ta‘lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta‘til vaqtlarini belgilovchi hujjat;

o‘quv reja – kasbiy ta‘limning muayyan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslari hamda ularni o‘rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

xalqaro akkreditatsiya – akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro ta‘lim sifatini ta‘minlash tarmoqlarining to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta‘lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayoni

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zMst 640:2025 (IFUT-21);

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining qarori, 2025 yil 20-martdagi ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3119-4;

O'zbekiston standartlar institutining 2025-yil 18-iyuldagi № 94/MSt-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

DTS – Davlat ta'lim standartlari;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Kasbiy ta'lim tashkiloti uslubchisi	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish va takomillashtirish, metodik birlashmalar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan metodik ta'minotni amalga oshirish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q seksiya: Ta'lim 85 Ta'lim 85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.32 Professional o'rta ta'lim 85.32.0 Professional o'rta ta'lim	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu kasbiy standart kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi uslubchilarning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda ularga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi Ta'lim beruvchilarning bilimlarini rivojlanishiga uslubiy yordam ko'rsatish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o'quv natijalariga erishishini ta'minlash, pedagogik sharoitlarni yaratish, ta'limni chuqurlashtirish va ehtiyojlarini qondirish, ta'lim dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlashda metodik ko'maklashish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		23510001 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha metodist	6
		23510002 Bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim bo'yicha metodist	6
		23510003 Kasbiy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis	6
		23510006 Metodist/uslubchi (umumiy yo'nalish)	6
		23510012 O'rta-maxsus ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis	6

III Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23510001 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha metodist	A1.6	Innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish	A1.01.6	O'quv jarayoniga AKT vositalari va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
				A1.02.6	Pedagoglar uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha seminar, trening va konsultatsiyalar tashkil etish
				A1.03.6	Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish
		A2.6	Metodik va ilmiy-uslubiy faoliyatni muvofiqlashtirish	A2.01.6	Fan yoki yo'nalish bo'yicha metodik ishlarni muvofiqlashtirish
				A2.02.6	Metodik birlashmalar, ijodiy guruhlar va ishchi komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish
		2	23510002 - Bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim bo'yicha metodist	B1.6	Inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha metodik faoliyatni olib borish
B1.02.6	Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash				
B1.03.6	Individual ta'lim rejaları (ITR) ishlab chiqishda yordam berish				
B1.04.6	Pedagoglarga inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha maslahat berish				
B2.6	Bolalarning psixologik qo'llab -quvvatlash tizimini rivojlantirish			B2.01.6	Seminar va treninglar tashkil etish
				B2.02.6	Pedagoglarga metodik qo'llanmalar tayyorlash
				B2.03.6	Inklyuziv ta'lim metodlarini joriy etishda yordam berish
B3.6	Pedagoglarga metodik maslahat va treninglar o'tkazish			B3.01.6	Bolalarning psixologik rivojlanishini kuzatish
				B3.02.6	Psixologik muammolarni aniqlashda pedagog va psixologlarga yordam berish
				B3.03.6	Stress, moslashuv muammolari va ijtimoiy muammolarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
B4.6	Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish			B4.01.6	Ota-onalar uchun maslahatlar va seminarlar tashkil etish
				B4.02.6	Bolaning rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berish
		B4.03.6	Oila va ta'lim tashkiloti o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish		

3	23510003 - Kasbiy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis	D1.6	Metodik birlashmalar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish	D1.01.6	Sohalar kesimida metodik birlashmalar tashkil etish (hujjatlarni rasmiylashtirish)
				D1.02.6	Pedagoglar va yosh o'qituvchilarning professional rivojlanish darajasini diagnostika qilish
				D1.03.6	Metodik birlashmalar faoliyatini takomillashtirish
		D2.6	Ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish	D2.01.6	O'quv mashg'ulotlari sifatini oshirishga qaratilgan metodlarni joriy etish
				D2.02.6	Yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish
		D3.6	O'quv metodik materiallarni tayyorlash	D3.01.6	Axborot metodik materiallar bilan ta'minlash
				D3.02.6	O'quv rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishni nazorat qilish
				D3.03.6	Ta'lim mazmunini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab — quvvatlash ishlarini tashkil etish
				D3.04.6	Metodik elektron kutubxona yaratish
		D4.6	O'qitish sifatining samaradorligini oshirish	D4.01.6	Ilg'or pedagogik ta'lim texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko'rsatma berish
				D4.02.6	Ta'lim sohasidagi jarayonlarga ilg'or innovatsion yondashuvlar, ichki va jahon tajribalari to'grisida ma'lumotlar tuplash va o'rgatish
				D4.03.6	Namunali o'quv mashg'ulotlar va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish
				D4.04.6	O'qitish va o'zlashtirish natijalarining sifatini monitoring qilish
		D5.6	Metodik materiallar ishlab chiqish va ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish	D5.01.6	Metodik materiallar ishlab chiqish va ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish
				D5.02.6	O'quv jarayoni samaradorligini tahlil qilish
		4	23510006 - Metodist/uslubchi (umumiy yo'nalish)	E1.6	Metodik birlashmalar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish
E1.02.6	Pedagoglar va yosh o'qituvchilarning professional rivojlanish darajasini diagnostika qilish				
E1.03.6	Metodik birlashmalar faoliyatini takomillashtirish				
E2.6	Ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish			E2.01.6	O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etilishini metodik jihatdan ta'minlash

				E2.02.6	Ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini me'yoriy talablarga mos holda takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
				E2.03.6	O'quv mashg'ulotlari sifatini oshirishga qaratilgan metodlarni joriy etish
				E2.04.6	Yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish
		E3.6	O'quv metodik materiallarni tayyorlash	E3.01.6	Axborot metodik materiallar bilan ta'minlash
				E3.02.6	O'quv rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishni nazorat qilish
				E3.03.6	Ta'lim mazmunini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab -quvvatlash ishlarini tashkil etish
				E3.04.6	Metodik elektron kutubxona yaratish
		E4.6	O'qitish sifatining samaradorligini oshirish	E4.01.6	Ilg'or pedagogik ta'lim texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko'rsatma berish
				E4.02.6	Ta'lim sohasidagi jarayonlarga ilg'or innovatsion yondashuvlar, ichki va jahon tajribalari to'g'risida ma'lumotlar to'plash va o'rgatish
				E4.03.6	Metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish
				E4.04.6	Namunali o'quv mashg'ulotlar va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish
				E4.05.6	O'qitish va o'zlashtirish natijalarining sifatini monitoring qilish
		E5.6	Metodik birlashma a'zolarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash	E5.01.6	Novator pedagog va ishlab chiqarish ta'lim ustalar ishlarini ommalashtirish
				E5.02.6	Metodik birlashma a'zolarini faoliyatini rag'batlantirish
		5	23510012 - O'rta-maxsus ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis	F1.6	Metodik birlashmalar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish
F1.02.6	Pedagoglar va yosh o'qituvchilarning professional rivojlanish darajasini diagnostika qilish				
F1.03.6	Metodik birlashmalar faoliyatini takomillashtirish				
F2.6	Ta'lim jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish			F2.01.6	O'quv mashg'ulotlari sifatini oshirishga qaratilgan metodlarni joriy etish
				F2.02.6	Yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish

		F3.6	O'quv metodik materiallarni tayyorlash	F3.01.6	Axborot metodik materiallar bilan ta'minlash
				F3.02.6	O'quv rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishni nazorat qilish
				F3.03.6	Ta'lim mazmunini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab — quvvatlash ishlarini tashkil etish
				F3.04.6	Metodik elektron kutubxona yaratish
		F4.6	O'qitish sifatining samaradorligini oshirish	F4.01.6	Ilg'or pedagogik ta'lim texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko'rsatma berish
				F4.02.6	Ta'lim sohasidagi ilg'or ichki va jahon tajribalari to'g'risida ma'lumotlar tuplash va o'rgatish
				F4.03.6	Namunali o'quv mashg'ulotlar va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish
				F4.04.6	O'qitish va o'zlashtirish natijalarining sifatini monitoring qilish
		F5.6	Metodik materiallar ishlab chiqish va ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish	F5.01.6	Metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish
				F5.02.6	O'quv jarayoni samaradorligini tahlil qilish

IV Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha metodist
Mashg'ulot nomining kodi:	23510
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakaga qo'yiladigan talab:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Pedagogik ish faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish, ta'lim texnologiyalari sohasida kamida 3 yil ish tajribasiga ega bo'lish</p> <p>AKTni o'quv jarayoniga yoki tashkilot faoliyatiga joriy etish va amalda qo'llash tajribasi</p> <p>Metodik materiallar, yo'riqnomalar, o'quv qo'llanmalar yoki raqamli resurslar ishlab chiqish va tatbiq etish tajribasi</p> <p>Trening, seminar yoki malaka oshirish tadbirlarini o'tkazish yoki tashkil etishda ishtirok etgan bo'lish</p>
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> -Mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash huquqiga ega bo'lish; -Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; -kompyuterda uzoq vaqt ishlashga mos bo'lish; -Ko'z ko'rishi va qo'l barmoqlari motorik qobiliyatlari ish faoliyatini to'liq bajarishga yetarli bo'lish; -stress va ish yuklamasiga chidamli bo'lish. <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;

	-Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi va ishlab chiqarish ustasi
	6	Oliy ma'lumotli ishlab chiqarish ustasi
	6	Oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Katta o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.6 - Innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish	A1.01.6 - O'quv jarayoniga AKT vositalari va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ta'lim tashkilotida AKTdan foydalanish holatini o'rganish va ehtiyojlar tahlilini o'tkazish
		2. Raqamli platformalar va AKT vositalarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish
		3. O'quv fanlari va modullar kesimida AKT integratsiyasi bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlash
		4. Masofaviy va aralash ta'lim modelini joriy etish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish
		5. Pedagoglar uchun AKTdan foydalanish bo'yicha seminar, trening va master-klasslar tashkil etish
		6. Elektron o'quv resurslari (video dars, test, interaktiv topshiriq, prezentatsiya) yaratish va ekspertiza qilish
		7. Raqamli ta'lim jarayonini monitoring qilish va samaradorligini baholash
		8. AKTdan foydalanish bo'yicha metodik hujjatlar va ko'rsatmalarni yangilab borish
		Ko'nikmalar:
		Raqamli ta'lim platformalari va LMS tizimlarida ishlash
		Elektron o'quv kontentini loyihalash va didaktik jihatdan moslashtirish
Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish		

		Pedagoglarga metodik yordam ko'rsatish va treninglar o'tkazish
		Ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va vizual hisobotlar tayyorlash
		Masofaviy muloqot va onlayn hamkorlik vositalaridan samarali foydalanish
		Muammoli vaziyatlarda texnologik va metodik yechimlar taklif etish
		Bilimlar:
		Ta'limda AKTdan foydalanish metodikasi va raqamli pedagogika asoslari
		Masofaviy ta'lim texnologiyalari, blended learning va flipped classroom yondashuvlari
		LMS tizimlari, videokonferensiya platformalari va interaktiv o'quv vositalari imkoniyatlari
		Multimedia o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari
		Ta'lim monitoringi, baholash mezonlari va indikatorlari
		Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli etik qoidalar
		Mehnat harakatlari:
		1. Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari darajasini aniqlash va ehtiyojlar tahlilini o'tkazish
	2. Seminar va treninglar mavzulari, maqsadi hamda o'quv dasturini ishlab chiqish	
	3. Raqamli texnologiyalar bo'yicha metodik materiallar (prezentatsiya, qo'llanma, video yo'riqnoma) tayyorlash	
	4. Amaliy mashg'ulotlar, master-klasslar va interaktiv treninglar tashkil etish	
	5. Individual va guruhli konsultatsiyalar o'tkazish hamda metodik yordam ko'rsatish	
	6. Trening natijalarini baholash (test, so'rovnoma, amaliy topshiriqlar orqali)	
	7. Pedagoglarning AKTdan foydalanish samaradorligini monitoring qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish	
	8. Seminar va treninglar bo'yicha hisobotlar tayyorlash hamda metodik bazani yangilab borish	
Ko'nikmalar:		
Trening va seminarlarni samarali tashkil etish hamda fasilitatsiya qilish		
Raqamli ta'lim platformalari va interaktiv vositalardan foydalanish		
O'quv materiallarini didaktik jihatdan to'g'ri loyihalash		
Pedagoglarning o'rganish motivatsiyasini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash		

		Taqdimot qilish, murakkab texnologik jarayonlarni sodda tushuntirish
		Onlayn va oflayn konsultatsiyalarni olib borish
		Tahliliy fikrlash va trening samaradorligini baholash
		Bilimlar:
		Kattalar ta'limi (andragogika) tamoyillari va trening metodikasi
		Ta'limda raqamli texnologiyalar va AKT vositalarini qo'llash usullari
		Masofaviy ta'lim, blended learning va interaktiv o'qitish yondashuvlari
		Baholash va monitoring metodlari (formativ va summativ baholash)
		Kommunikatsiya va fasilitatsiya texnikalari
		Axborot xavfsizligi va raqamli etik me'yorlar
	A1.03.6 - Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'lim jarayonida mavjud metod va texnologiyalarni tahlil qilish hamda yangilash ehtiyojlarini aniqlash
		2. Innovatsion pedagogik yondashuvlar (loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, STEAM, raqamli ta'lim va boshqalar)ni tanlash va joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
		3. Tajriba-sinov darslari, pilot loyihalar va innovatsion metodik tadbirlarni tashkil etish
		4. Pedagoglarni innovatsion metodlardan foydalanishga o'rgatish uchun seminar, trening va master-klasslar o'tkazish
		5. Innovatsion o'quv materiallari va didaktik vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish
		6. Innovatsiyalar samaradorligini monitoring qilish va natijalar asosida takomillashtirish choralarini ko'rish
		7. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish
		Ko'nikmalar:
		Innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va integratsiya qilish
		Kreativ fikrlash va muammolarni yechish
		Pedagogik eksperimentlarni tashkil etish va natijalarini tahlil qilish
		Trening va fasilitatsiya ko'nikmalari
		Ta'lim jarayonini modellashtirish va metodik qo'llab-quvvatlash
		Raqamli va interaktiv vositalardan samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish metodlari

		Kompetensiyaviy yondashuv va o'quv natijalarini loyihalash asoslari
		Ta'lim sifatini baholash va monitoring tizimlari
		Ta'limda AKT va raqamli pedagogika tamoyillari
		O'zgarishlarni boshqarish (change management) va innovatsiyalarni joriy etish bosqichlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ta'lim jarayoniga AKTni samarali joriy etish
		2. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan choralar va strategiyalarning ishlab chiqilishi uchun mas'ul
		3. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish
		4. Ta'lim sifatini rivojlantirishga doir tashabbuslarni ilgari surish va amalga oshirishda mustaqildir
A2.6 - Metodik va ilmiy-uslubiy faoliyatni muvofiqlashtirish	A2.01.6 - Fan yoki yo'nalish bo'yicha metodik ishlarni muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Fan yoki yo'nalish kesimida metodik ishlar holatini o'rganish va ehtiyojlar tahlilini o'tkazish
		2. Metodik birlashmalar va ishchi guruhlar faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish
		3. Ochiq darslar, seminarlar, metodik haftaliklar va tajriba almashish tadbirlarini o'tkazish
		4. Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va ommalashtirish
		5. Metodik ishlar samaradorligini monitoring qilish va tahliliy hisobotlar tayyorlash
		6. Fan o'qituvchilariga metodik maslahatlar berish va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash
		7. Metodik hujjatlar ijrosini nazorat qilish va yangilab borish
		Ko'nikmalar:
		Metodik faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish
		Pedagogik jarayonni tahlil qilish va muammolarni aniqlash
		Metodik materiallarni ekspertiza qilish va takomillashtirish
		Trening, seminar va metodik yig'ilishlarni samarali olib borish
		Jamoada ishlash va samarali kommunikatsiya o'rnatish
		Monitoring natijalarini qayta ishlash va xulosalar chiqarish
		Bilimlar:
		Fan metodikasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari
		O'quv rejalari, dasturlar va ta'lim standartlari talablari
		Ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimlari
		Metodik ishlarni tashkil etish va boshqarish tamoyillari

		Pedagogik innovatsiyalar va ilg'or tajribalarni joriy etish usullari
	A2.02.6 - Metodik birlashmalar, ijodiy guruhlar va ishchi komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Metodik birlashmalar, ijodiy guruhlar va ishchi komissiyalar tarkibini shakllantirish hamda ularning faoliyat yo'nalishlarini belgilash
		2. Yillik va choraklik ish rejalarini ishlab chiqish va ijrosini muvofiqlashtirish
		3. Yig'ilishlar, seminarlar, davra suhbatlari va metodik tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish
		4. Guruhlar o'rtasida hamkorlik va tajriba almashuvini yo'lga qo'yish
		5. Metodik ishlanmalar, o'quv materiallari va loyihalarni ishlab chiqish jarayonini boshqarish
		6. Faoliyat samaradorligini monitoring qilish va tahliliy hisobotlar tayyorlash
		7. Muammoli masalalar yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Jamoaviy faoliyatni tashkil etish va liderlik qilish
		Rejalashtirish va tashkiliy boshqaruvni amalga oshirish
		Metodik materiallarni tahlil qilish va ekspertiza qilish
		Konfliktlarni konstruktiv hal etish va motivatsiya berish
		Monitoring natijalarini qayta ishlash
		Bilimlar:
		Metodik ishlarni tashkil etish va boshqarish tamoyillari
		Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar
		Ta'lim sifatini baholash va monitoring tizimlari
		Jamoa boshqaruvi va samarali kommunikatsiya asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Darslar uchun mos AKT vositalarini tanlash hamda kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun mas'ul
		2. O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun mas'ul
		3. Pedagogik faoliyatni baholash va takomillashtirish bo'yicha rahbarlikni mustaqil amalga oshiradi
		4. Elektron darsliklar, testlar va platformalarni ishlab chiqish va jamoani rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishda mustaqildir
	Texnik va/yoki texnologik talab:	Noutbuk, shaxsiy kompyuter, proyektor, interaktiv doska, Internet, USB, printer, skaner; Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturlari (Word, Excel, PowerPoint), elektron pochta, fayllarni tizimlashtirish;

	<p>Onlayn darslar uchun Zoom, Google Teams platformalari, mashg'ulotlarda video ta'lim vositalari; Proyektor, interaktiv doska, elektron jurnallardan foydalanish tizimlari;</p> <p>Ta'lim tizimida axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etishning zamonaviy yondashuvlar, arxitektura va texnologik yechimlar;</p> <p>Ta'lim jarayonini raqamlashtirish, elektron ta'lim muhitini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari;</p> <p>Elektron ta'lim resurslarini (elektron darsliklar, videodarslar, SCORM paketlar, interaktiv kontent) yaratish, tahrirlash va integratsiya qilish texnologiyalari;</p> <p>Masofaviy va gibrid ta'limni tashkil etishda qo'llaniladigan texnik vositalar va dasturiy platformalar;</p> <p>Raqamli ta'lim vositalari (onlayn test tizimlari, baholash platformalari, analitik panellar);</p> <p>Bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar bazalari va raqamli xizmatlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <p>Ta'lim jarayonida multimedia, vizualizatsiya va dizayn texnologiyalari;</p> <p>Texnik infratuzilma (kompyuter tarmoqlari, serverlar, internet resurslari)</p>
--	---

Kasbning nomi:	Bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim bo'yicha metodist
Mashg'ulot nomining kodi:	23510
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakaga qo'yiladigan talab:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 yil pedagogik yoki psixologik faoliyat tajribasi Ta'lim tizimida (o'rta maxsus yoki kasbiy ta'lim) ishlagan bo'lishi maqsadga muvofiq Inklyuziv ta'lim yoki psixologiya bo'yicha malaka oshirish kurslari sertifikatlari Maxsus ehtiyojli bolalar (nogironligi bo'lgan yoki rivojlanishida qiyinchiliklar mavjud bolalar) bilan ishlash tajribasi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash huquqiga ega bo'lish; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - kompyuterda uzoq vaqt ishlashga mos bo'lish; - Ko'z ko'rishi va qo'l barmoqlari motorik qobiliyatlari ish faoliyatini to'liq bajarishga yetarli bo'lish; - stress va ish yuklamasiga chidamli bo'lish. <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat

Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli ishlab chiqarish ustasi
	6	Oliy ma'lumotli ishlab chiqarish ustasi
	6	Oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Katta o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6 - Inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha metodik faoliyatni olib borish	B1.01.6 - Inklyuziv ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Inklyuziv ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish
		2. Nogironligi bo'lgan va alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish
		3. Individual ta'lim rejaları (ITR)ni tuzishda pedagoglar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish
		4. O'quv materiallari va metodik vositalarni inklyuziv yondashuv asosida tanlash va moslashtirish
		5. Ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar va qulay muhitni ta'minlash choralari ishlab chiqish
		6. Inklyuziv ta'lim dasturlarining samaradorligini monitoring qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish
		Ko'nikmalar:
		Inklyuziv ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llash
		Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va moslashtirish
		O'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish
		Jamoda ishlash va multidissiplinar hamkorlikni tashkil etish
		Monitoring va baholash vositalaridan foydalanish
		AKT va assistiv texnologiyalardan samarali foydalanish
		Bilimlar:
Inklyuziv ta'limning normativ-huquqiy asoslari		
Maxsus pedagogika va defektologiya asoslari		
Differensial va individual yondashuv tamoyillari		
Ta'lim dasturlarini loyihalash metodologiyasi		

		Baholash va diagnostika usullari
		O'quvchilarning yosh va psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari
		Assistiv vositalar va inklyuziv muhitni tashkil etish talablari
	B1.02.6 - Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning o'quv va rivojlanish ehtiyojlarini o'rganish va tahlil qilish
		2. Fanlar va kasbiy modullar kesimida metodik tavsiyalarni ishlab chiqish
		3. O'quv materiallarini soddalashtirish, moslashtirish va differensiallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash
		4. Individual va kichik guruhlarda ishlash metodikasini ishlab chiqishda ishtirok etish
		5. Pedagoglar uchun inklyuziv ta'lim metodlari bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash
		6. Assistiv vositalar va maxsus didaktik materiallardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish
		7. Metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish va ularning samaradorligini baholash
		Ko'nikmalar:
		Metodik hujjatlar va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish
		O'quv jarayonini differensial va individual tashkil etish
		Ta'lim mazmunini moslashtirish va soddalashtirish
		Pedagogik diagnostika natijalarini tahlil qilish
		Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash
		Ta'lim jarayonida inklyuziv muhitni yaratish bo'yicha maslahat berish
		Bilimlar:
		Inklyuziv va maxsus ta'lim metodikasi
		Defektologiya, logopediya va maxsus psixologiya asoslari
		Metodik materiallar ishlab chiqish tamoyillari va talablari
		Differensial o'qitish strategiyalari
	O'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlari	
	Assistiv texnologiyalar va maxsus o'quv vositalari	
	Ta'lim samaradorligini baholash mezonlari	
	B1.03.6 - Individual ta'lim rejalari (ITR) ishlab chiqishda yordam berish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlari va rivojlanish darajasini aniqlashda ishtirok etish
2. Pedagog, psixolog va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda Individual ta'lim rejasini ishlab chiqish		
3. O'quv maqsadlari, kutilayotgan natijalar va baholash mezonlarini belgilashga ko'maklashish		
4. O'quv mazmuni, metod va vositalarni o'quvchining imkoniyatlariga moslashtirish		

		5. Individual ta'lim rejalarini amalga oshirish jarayonini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash
		6. ITR bajarilishi yuzasidan monitoring va tahlil ishlarini olib borishda ishtirok etish
		7. Zaruratga ko'ra Individual ta'lim rejasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berish
		8. Ota-onalar (yoki qonuniy vakillar) bilan ITR mazmuni bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish
		Ko'nikmalar:
		Individual ta'lim rejasini loyihalash va rasmiylashtirish
		O'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish
		Differensial va individual yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish
		Ta'lim natijalarini monitoring qilish va baholash
		Multidissiplinar jamoada samarali ishlash
		Hujjatlar bilan ishlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish
		Muloqot va maslahat berish kompetensiyalari
		Bilimlar:
		Individual ta'limni tashkil etish tamoyillari va metodologiyasi
		Inklyuziv ta'limning normativ-huquqiy asoslari
		Pedagogik diagnostika va baholash usullari
		O'quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik rivojlanish xususiyatlari
		Differensial va moslashtirilgan o'quv dasturlari mazmuni
		Ta'lim jarayonini rejalashtirish va monitoring qilish mexanizmlari
		Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asoslari
		Mehnat harakatlari:
		1. Pedagoglarning inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish
		2. Inklyuziv o'qitish usullari va yondashuvlari bo'yicha metodik maslahatlar berish
		3. Dars jarayonini differensiallashtirish va moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish
		4. Individual va guruhli maslahatlar, metodik uchrashuvlar va treninglar tashkil etish
		5. Pedagoglarga moslashtirilgan o'quv materiallari va baholash vositalarini tanlashda ko'maklashish
		6. Inklyuziv ta'limda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha tavsiyalar berish
7. Inklyuziv ta'lim bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish va joriy etishga ko'maklashish		
B1.04.6 - Pedagoglarga inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha maslahat berish		

		Ko'nikmalar:
		Metodik maslahat berish va pedagogik kouçing olib borish
		Inklyuziv ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish
		Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish
		Ta'lim jarayonini moslashtirish va differensial tashkil etish
		Samarali muloqot va taqdimot ko'nikmalari
		Seminar, trening va mahorat darslarini tashkil etish
		Monitoring va refleksiya usullaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Inklyuziv ta'lim metodikasi va tamoyillari
		Differensial va individual o'qitish strategiyalari
		Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari
		Pedagogik maslahat berish texnologiyalari
		O'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari turlari
		Moslashtirilgan baholash usullari
Ta'lim jarayonida hamkorlik va jamoaviy ishlash mexanizmlari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Pedagogik jamoaning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun mas'ul	
	2. Inklyuziv o'qitish usullari va yondashuvlari bo'yicha metodik maslahatlar berishga mas'ul	
	3. Pedagogik faoliyatni baholash va takomillashtirish bo'yicha rahbarlikni mustaqil amalga oshirish	
	4. Pedagogik jamoani rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishda mustaqildir	
B2.6 - Bolalarning psixologik qo'llab - quvvatlash tizimini rivojlantirish	B2.01.6 - Seminar va treninglar tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Seminar va trening dasturi, kun tartibi hamda o'quv materiallarini ishlab chiqish
		2. Interfaol metodlar asosida seminar va treninglarni o'tkazish
		3. Amaliy mashg'ulotlar, muhokamalar va tajriba almashish jarayonlarini tashkil etish
		4. Ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda fikr-mulohazalarini yig'ish
		5. Seminar va trening natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		O'quv-tashkiliy faoliyatni rejalashtirish va muvofiqlashtirish
		Trening metodlari va fasilitatsiya texnikalarini qo'llash
		Taqdimot tayyorlash va auditoriya bilan samarali ishlash
		Interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
		Guruh jarayonlarini boshqarish va motivatsiya berish
		Monitoring va baholash vositalaridan foydalanish

		AKT vositalari orqali oflayn va onlayn treninglarni tashkil etish
		Bilimlar: Kattalar ta'limi (andragogika) asoslari Seminar va trening metodologiyasi Interfaol o'qitish usullari va vositalari Ta'lim dasturlarini loyihalash tamoyillari Baholash va refleksiya usullari Tashkiliy boshqaruv va vaqtni rejalashtirish asoslari Zamonaviy taqdimot va raqamli ta'lim platformalari imkoniyatlari
	B2.02.6 - Pedagoglarga metodik qo'llanmalar tayyorlash	Mehnat harakatlari: 1. Pedagoglarning metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish 2. Fanlar va kasbiy modullar kesimida metodik qo'llanmalar konsepsiyasini ishlab chiqish 3. Metodik qo'llanma tarkibi, tuzilmasi va mazmunini shakllantirish 4. Zamonaviy pedagogik va inklyuziv ta'lim yondashuvlari asosida materiallar tayyorlash 5. Amaliy misollar, tavsiyalar, topshiriqlar va baholash mezonlarini ishlab chiqish 6. Qo'llanmalarni tajriba-sinovdan o'tkazish va takomillashtirish 7. Metodik qo'llanmalarni joriy etish va foydalanish bo'yicha pedagoglarga tushuntirish berish
